



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
“ZAMONAVIY IJTIMOIY PSIXOLOGIYA: AN'ANALAR VA ISTIQBOLLAR”  
MAVZUSIDAGI I - XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
19-20 may

---

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕЕ ОБРАЗОВАНИЕ, НАУКИ И  
ИННОВАЦИИ РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН  
ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
«СОВРЕМЕННАЯ СОЦИАЛЬНАЯ ПСИХОЛОГИЯ: ТРАДИЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ»  
I - МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ  
19-20 май

---

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION REPUBLIC  
OF UZBEKISTAN JIZZAKH STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY «MODERN  
SOCIAL PSYCHOLOGY: TRADITIONS AND PERSPECTIVES»  
I - INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE  
19-20 may



I

JIZZAX - 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“ZAMONAVIY IJTIMOIY PSIXOLOGIYA:  
AN'ANALAR VA ISTIQBOLLAR” MAVZUSIDAGI  
I - XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN**

**19-20 may**

**ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
«СОВРЕМЕННАЯ СОЦИАЛЬНАЯ ПСИХОЛОГИЯ:  
ТРАДИЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ»**

**I - МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ 19-20 май**

**JIZZAKH STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY  
«MODERN SOCIAL PSYCHOLOGY:  
TRADITIONS AND PERSPECTIVES»**

**I - INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE 19-20 may**

**1-QISM**



**UDK: 316.6**

**BBK: 25**

**«Zamonaviy ijtimoiy psixologiya: an'analar va istiqbollar» mavzuidagi  
I-xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari**

(1-qism). Jizzax, 2023. – 446 bet.

**Mas'ul muharrir:**

***Abdurasulov Rustam Abduraimovich – pedagogika fan. nom., professor***

**Tahrir hay'ati:**

**G.A.Qarshiboyeva, Sh.O'.Kamolova, M.Q.Qodirova**

**Taqrizchilar:**

***Shoumarov G`ayrat Bahromovich - psixologiya fanlari doktori, professor***

***To`raqulova Iroda Xolbo`tayevna - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent***

**Texnik sahifalovchi:**

***Majidov Jasur Baxtiyorovich***

*Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to'plam, hozirda e'tirof etilayotgan ijtimoiy psixologiyaning eng zamonaviy tendensiyalarini amaliyotga tadbiq etilishiga bag'ishlanganligi bilan ahamiyatlidir.*

*Shuningdek, to'plamda psixologiya sohasida olib borilayotgan islohatlar, pedagogika va psixologiya ta'lif yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga ta'lif berishga zamonaviy yondashuv, xorijiy tajribalar masalalari, mamlakatimizda psixologiya sohasi bo'yicha amalga oshirilayotgan islohatlari kabi yirik masalalarni ijobiy hal etishning nazariy jihatlariga keng o'rinn berilgan.*

*To'plam talabalar, magistrler, tayanch doktorantlar va barcha o'quvchilar ommasi uchun mo'ljallangan.*

Ma'ruzalar materiallarida yoritilgan tarixiy jarayonlar, ma'lumotlar va chiqarilgan xulosalarning haqqoniyligiga mualliflar javobgar.

6. Кулинг. Кулгу ҳар қандай ҳаёт қийинчиликларига қарши курашда ҳар ёқлама қурол ҳисобланади. Шунингдек, у мияни машқ қилдирувчи ажойиб восита ҳамdir.

Буюк инсонлар фақатгина фидойилиги, ташаббускорлиги, яратувчанлиги, мардлиги, ақл-идроқи, тафаккури, букилмас иродаси туфайлигина инсоният тарихида ўчмас из қолдиради. Аслида, ақл, ҳиссиёт ва ирода маънавий жасорат маҳсулидир. Шундай экан, инсон ҳаётда ўзидан из қолдириши учун унда улкан қалб, ақл, ирода, гайрат-шижоат, эҳтирос, ўзига ишонч бўлиши шарт.

Албатта, қалб, эҳтирослар жуда жўшганда, нимани гапириш ёки гапирмаслик ёки қандай харакат қилишнинг назорати ҳам ақлнинг қўлида. Худди шундай бу дунёда атрофдаги одамларга қандай қўриниш, муҳитда ўзимизни қандай тутиш, ичимиздаги риёни ташқарига чиқиб кетишини олдини олиш ёки беркитиб туриш, бир сўз билан айтганда, барча харакатларимизнинг назорати ҳам ақлнинг қўлида. Шу боисдан ақл туфайли юзага келадиган харакат иродани ташкил этади. Ироданинг вазифаси – воқелик таъсирида юзага келадиган эҳтиросларга қарши курашишdir. Айнан ирода ҳар қандай харакатни тормозлаш, эҳтиросларни тўхтатишга қодир. Демак, ақл ироданинг шахсий куролидир. Аммо қалб хуруж қилгандагина, ақлнинг кимлиги кўзга ташланади. Шундай экан, ақл, ҳиссиёт ва ироданинг ўзаро интегратив ривожланиши туфайли шахс камолоти рефлексия таъсирида реалликка айланади.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР.**

1. Хайриев И. Иродани тарбиялаш комилликка элтади. – Тошкент, “MASHHUR-PRESS” нашриёти, 2021. – 512 б.
2. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Руҳий тарбия. Покланиш. 1-жуз. – Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2008. – 447 б.
3. Селиванов В.И. Психология волевой активности. – Рязань. 1974. – 276 с.
4. Ҳақиқат манзаралари. 96 мумтоз файласуф / тақдирлар, ҳикматлар, афоризмлар. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2012. – 372 б.
5. Ушинский Д.М. Избранные педагогические сочинения: В 2.т. / Под ред. А.И.Пискунова. – М.: Педагогика, 1974. – 584 с.
7. [https://t.me/Samarqand\\_live](https://t.me/Samarqand_live).

### **CHET ELLIK TALABALARING O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHUVINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI**

**Nazarova Manzura Mustafo qizi**, tayanch doktorant  
Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlatimiz oliy ta'lrim dargohlarida tahsil olayotgan chet ellik talabalarning O'zbekiston ta'lrim tizimiga moslashuvining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, bu jarayonda xorijlik talabalar duch kelishi mumkin bo'lgan turli psixologik qiyinchiliklar, muammolar va ularni bartaraf etish usullari yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Integratsiya, madaniyat, muloqot, integral motivatsiya, instrumental motivatsiya.

Bugungi madaniyat integratsiyasi sharoitida O'zbekiston oliy ta'lif dargohlarida nafaqat mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligiga, balki, yangi ijtimoiy-madaniy muhitda mustaqil faoliyat yuritishga tayyor bo'lgan shaxslarni bag'rikenglik munosabatlari asosida boshqa madaniyat vakillari bilan faol o'zaro munosabatlarga yo'naltirishga e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi vaqtida ko'plab universitetlar xalqaro va davlatlararo aloqalarga integratsiyalashgan xususiyatga ega bo'lmoqda. Bugungi kunda zamonaviy ilm-fanda madaniyatlararo o'zaro ta'sirning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga qiziqish kuchaygan. Xo'sh, madaniyatlararo aloqa deganda o'zi nima tushuniladi? Dastlab ushbu tushuncha mohiyatini yoritib berishga e'tibor qaratsak. Madaniyatlararo aloqa-bu turli xil insoniyat madaniyati vakillarining o'zaro ta'siri jarayoni. [Ширкова Н.Н. Специфика межкультурной коммуникации иностранных студентов в системе высшего образования //Современная педагогика. 2015. № 12 ]. Mazkur tushuncha 1950-yillarda amerikalik antropolog Edvard Xoll tomonidan kiritilgan bo'lib, unga xos bo'lgan quyidagi muhim xususiyatlarni ta'kidlash mumkin: Birinchidan, qabul qiluvchi aloqalarning kuchi va hajmi vaqt o'tishi bilan ortadi. Boshqa madaniy makonda ko'proq vaqt o'tkazish orqali xalqaro talabalar mezbon mamlakatdagi odamlar bilan muloqot qilish miqdori va sifatini asta-sekin oshirib boradilar, ba'zan hatto bu bilan o'zlarining etnik aloqalarini almashtiradilar. Moddiy, axborot, hissiy, ta'lim va ko'ngilochar xizmatlar talabalarni dastlabki bosqichda moslashishni osonlashtiradi.

Chet elda noaniqlik hissi va ularning madaniy o'ziga xosligini his qilish tufayli xalqaro talabalar milliy talabalardan biri bilan do'stlik o'rnatishga, o'zlarining milliy va madaniy o'ziga xosligini izlashga va saqlashga moyilligi ortadi. Bu fikrimizning isboti sifatida Buxoro davlat tibbiyot institutida olib borgan eksperimentimizdan olgan xulosalarimizni keltirishimiz mumkin: Biz psixologiya sohasida asosiy metodlar sirasiga kiruvchi kuzatuv va suhbat metodlarini qo'llagan holda o'tkazgan tadqiqotimiz asnosida 3-4 bakalavriat kurslari talabalar darsdan tashqari faoliyat bilan bog'liq turli tadbirlarda ko'proq ishtirok etishganini va 1-2 bakalavriat kurslari talabalariga qaraganda mahalliy talabalar bilan ko'proq muloqot qilishlarini aniqladik. Ular yaxshi akademik ko'rsatkichlar, o'z-o'zini rag'batlantirish, o'quv jarayonidan ko'proq qoniqish, universitet va hayotdan ko'proq zavqlanish kabi jarayonlarga alohida e'tibor bilan yondashishlarini ta'kidlash joiz.

Shuningdek, yangi madaniyatga adaptatsiya hosil qilish jarayoniga sarflangan vaqt davomiyligi ham muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlash joizdir. Kuzatuvarimiz natijasi shuni ko'rsatdiki, xalqaro talabalarining mezbon mamlakatda do'stlari kam. Biz chet ellik talabalarining aksariyat qismi, odatda, dastlab vatandoshlari yoki boshqa chet ellik talabalar bilan ko'proq yaqin aloqada bo'lisligrini aniqladik. Shuningdek, xorijlik talabalar bilan o'tkazilgan suhbat metodi asnosida ular o'zbek talabalarining fikrlari va xatti-harakatlarini tushunishdagi qiyinchiliklarga, umumiy muhokama qilgulik mavzularining yetishmasligiga duch kelishganliklari haqida to'xtalib o'tdilar. Biz suhbatlashgan chet ellik talabalarining muayyan qismi o'zbekistonlik talabalar va institut o'qituvchilari bilan neytral munosabatda ekanligini bildirdi. Fikrimizcha, puxta egallangan til ko'nikmalari chet ellik talabalar va mezbon oliy ta'lif dargohi pedagog hamda talabalar o'rtasidagi madaniy masofaning qisqarishiga sabab bo'ladi, o'zaro ta'sir jarayonini osonlashtiradi va munozara mavzularini kengaytiradi. Madaniyatlararo aloqalarni o'rnatish jarayoniga bir qator omillar to'sqinlik qilishi mumkin:

Shunday sabablardan biri, bu xorijlik talabalarining motivatsiyasi. Bu jarayonda ularda integral hamda instrumental motivatsiya deb nomlanuvchi bir-biridan farq qiluvchi tushunchalar tafovutlanadi. Chet elda o'qish uchun motivatsiya, avvalambor, integral emas,

balki, instrumental bo'lishi mumkin. Instrumental motivatsiya deganda biz birinchi navbatda bilim olish, almashuv bo'yicha o'qitish, ilmiy daraja olish yoki ishga joylashishni nazarda tutamiz. Chet el madaniyatini o'rganish yoki chet tilini o'rganish tajribasini olish istagini o'z ichiga olgan integral maqsadga ega bo'lганlardan farqli o'laroq, ushbu talabalar guruhi mahalliy (o'zbek) talabalar bilan yanada ko'proq muloqot qilishdan manfaatdor emas. Bundan tashqari, mezbon mamlakat talabalarida ham chet ellik talabalar bilan madaniyatlararo aloqaning afzalliklarini yetarlicha tushunmaslik, shuningdek, ular bilan muloqot qilishga unchalik qiziqish bildirmaslik holatlarini ham ta'kidlab o'tish joiz.

Ba'zi etnik guruhlarning yakkalanib qolishining yana bir g'ayrioddiiy sababi bu ularning milliy doirasidagi rashkdir [Самореализация молодежи в социуме. Достижения. Проблемы. Перспективы./ Под ред. Тихомировой Е.И. Самара. Изд-во АсГард, 2009]. Ko'pgina xalqaro talabalar boshqa millat vakillaridan do'st orttirganligi, u bilan yaqin aloqada bo'lганligi bois etnik do'stlari orasida ajralib qolishdan qo'rqishadi. Bu singari hadik va xavotir hissi ham o'z navbatida integratsiya va adaptatsiya jarayonining sekin, shuning bilan birga qiyinchilik bilan kechishiga sabab bo'luvchi omillaridan biri sifatida keltiriladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, biz chet ellik talabalarning O'zbekiston oliv ta'lim muassasalarida ta'lim olishlari mobaynida ijtimoiy-madaniy moslashuv jarayonidan tezroq o'tishlarini qo'llab-quvvatlaymiz. Tahsil mobaynida o'zbek talabalari bilan yaxshi aloqa o'rnatish adaptatsiya jarayonining imkon qadar tezroq kechishiga, xalqaro talabalarning psixologik farovonligini ta'minlashga, talabalarda moslashish stressidan xalos bo'lish, ruhiy salomatlikni saqlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ширкова Н.Н. Специфика межкультурной коммуникации иностранных студентов в системе высшего образования // Современная педагогика. 2015. № 12.
2. Самореализация молодежи в социуме. Достижения. Проблемы. Перспективы./ Под ред. Тихомировой Е.И. Самара. Изд-во АсГард, 2009.
3. Тер – Минасова С.Г. Языки и культуры: борьба за мировое господство или мирное сосуществование? Проблемы филологии и межкультурной коммуникации на современном этапе: Материалы международной научно-практической конференции. Т.1.- Якутск: Изд-во Якутского университета, 2008.
4. Садохин А.П. Введение в межкультурную коммуникацию: учебное пособие./ А.П. Садохин. – М.: Издательство «Омега – Л», 2009.
5. G'oziyev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. Т.:1990
6. G'oziyev E.G'. Psixologiya. -Т., O'zMU «Universitet», 2003.

## **БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ МАЊНАВИЙ ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ -ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА**

**Нельмат Кушвактов,** пед.ф.н., доц.  
Жizzah давлат педагогика университети

**Аннотация.** Ушбу мақолада бўлажак ўқитувчиларнинг мањнавий тарбиясини шакллантириш масаласи ёритилган.

<b>Луфов М.Т., Мен Сиянкай, Гафуров Б.</b> Педагогико-психологические основания активизации будущих учителей в образовательном процессе.....	209
<b>Жўраева С.Н.</b> Олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари имижининг ижтимоий-психологик хусусиятларининг тадқики.....	212
<b>Хайриев И.</b> Ақл, ҳиссиёт ва ирода интеграцияси салоҳиятли кадрлар тайёрлашнинг бош омили.....	217
<b>To'raqulova I.X..</b> O'quvchilar kreativlik xususiyatlarini testlardan foydalanish asosida rivojlantirish.....	220
<b>Bayturayeva N, To'raqulov X.</b> Oliy ta'limga mutaxassislik fanlaridan seminar mashg'ulotlarni o'tkazish metodlari va ilmiy-metodik omillari.....	224
<b>Bayturayeva N, To'raqulov X.</b> Bo'lajak pedagoglarning kasbiy va axloqiy madaniyatini shakillanishining pedagogik - psixologik xususiyatlari va o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar.....	228
<b>Махмудова Д.А.</b> Психологические особенности проявления тревожности у жертв торговли людьми юношеского возраста.....	231
<b>Хайриев И.</b> Ақл, ҳиссиёт ва ирода интеграцияси салоҳиятли кадрлар тайёрлашнинг бош омили.....	234
<b>Nazarova M.</b> Chet ellik talabalarning O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashuvining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari.....	237
<b>Кушвактов Н.</b> Бўлажак ўқитувчиларнинг маънавий тарбиясини шакллантириш -педагогик муаммо сифатида.....	239
<b>Цой М.П.</b> Коммуникативная компетентность педагогов-психологов и их подготовка в условиях вуза.....	242
<b>Abduqodirova N.X.</b> Ta`lim tizimida pedagogik tajribalarning o'rni.....	245
<b>Xalilova Z. F.</b> Frazeologizm - diqqatni jalb qilish vositasi nemis tili misolida.....	249
<b>Bozorov A. A.</b> Zamon talabida professor – o'qituvchilarni kasbiy kamoloti.....	252
<b>Djumanov Shi.</b> Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligining kommunikativ jihatlari.....	255
<b>Djumanov Sh, Sauranova S.</b> O'quvchilarda o'quv motvatsiyalarini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.....	258
<b>Avazyazova D. Sh.</b> Talabalarda stress holatining ijtimoiy psiologik jihatlari.....	261
<b>Amonxonova Ya.A.</b> Kasbiy kompetentlik va umumiy o'rta ta'lim muassasasini boshqarish metodlari.....	266
<b>Egamnazarov M.Yu.</b> Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitida talabalarda ma'naviy tarbiyaning ta'sirchan usulini amalga oshirishda psixologik xizmatni tashkil etish masalalari.....	268
<b>Jasurova N., Xudoyqulova G., Tojimurodova S.</b> O'smirlarda ingliz tilini o'rganishda qobiliyatlarining ijtimoiy psixologik asoslari.....	270
<b>Pardayeva K. U.</b> Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari.....	273
<b>Sog'inov N.A., Shodiyeva R.</b> Psixologiya sohasida ilmiy salohiyatli kadrlarni tayyorlashda milliy qadriyatlardan foydalanish.....	276